

“TEMURBEKLAR MAK TABI” O‘QUVCHILARIDA HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI JADIDCHILARNING PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Quldashev Murodjon G‘aniyevich,

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

Farg‘ona “Temurbeklar maktablari” harbiy akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Temurbeklar maktablari” o‘quvchilarini harbiy vatanparvarlik rivojlantirish borasida jadidlar g‘oyaviy qarashlari va ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, “Temurbeklar maktablari” tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, shaxs, kasb, ijtimoiy faoliyat, ma’naviyat, kompetensiya, ma’naviy, harbiy vatanparvarlik va kompetentlik g‘oyaviy qarashlar.

Abstract. In this article, the ideological views of the jadids and the pedagogical foundations of the formation of spiritual and moral culture regarding the development of military patriotism among “Temurbek schoolchildren”, the formation of spiritual and moral education in the system of “Temurbek schools”, and the spiritual and professional training of future specialists written about the problem, especially the effective organization of the system of educational work in educational institutions.

Key words: student, knowledge, skills, competence, personality, profession, social activity, spirituality, competence, spiritual, military patriotism and competence ideological views.

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Shu o‘rinda yurtboshimiz tomonidan “Temurbeklar maktablari” va Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyiniochilishi yoshlarni harbiy va ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari ta’lim sohasida O‘zbekistonda bo‘lajak harbiylarda bilim berish va ta’limsifatini oshirishda nimalarga etibor qaratish kerak? Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Temurbeklarmaktablari ta’lim sohasida tub burilish vaqt keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021- yil 19- yanvar kuni ma’naviy- ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi-bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi –ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”[1] ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdi.

“Ma’naviyat” tushunchasini tavsiflashga doir xilma-xil talqinlar mavjud bo‘lib, “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar” Annotatsiyali lug‘atida: “Ma’naviyat (arab. ma’no, ma’nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma - yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa”[2, 333] tarzida umumlashgan ta’rif berilgan.

Jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniy aytganidek: «Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar. Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimuslar shimal taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turikchilik oson yerkunda tashlab hijrat qilurlar edi». Inson uchun vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambag‘ali ham bo‘lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in’om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir[3].

Vatanparvarlik – bu insonning, ona Vataniga, o‘z millati hamda tug‘ilib o‘sgan madaniy muhitiga bo‘lgan muhabbatidir. Vatanparvarlikning bu tabiiy asoslari, tabiiy tuyg‘u sifatida uning axloqiy ahamiyatini har bir insonda burch va fazilat sifatida birlashtiradi. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida bir qator qarorlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023- yil 29 -iyundagi 267- sonli “Yoshlarni harbiy-

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g“risida” to‘g“risidagi qarori shular jumlasidandir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ayniqsa, milliy qahramonlarimiz, ota-bobolarimizning vatan, yurt uchun fidoyiliklari tarbiya jarayoniga ijobjiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Har bir yosh avlodning ong-u shuuriga, buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning vatan ravnaqi, yurt tinchligi uchun qahramonliklarini singdira olsakgina, haqiqiy millatparvar, jonkuyar, sha’ni, qadr-qimmati, millatini ulug‘lay oladigan vatan uchun jonini fido qilishga tayyor shaxsni tarbiyalay olamiz. Millat farzandlarining tomirida oqayotgan qoni, ularni o‘tmishdagi ota-bobolari bilan bevosita bog‘lab turuvchi rishta hisoblanadi. Yosh avlod tarbiyasida doimiy ravishda o‘tmishimizga suyanamiz va tayanamiz. Shu o‘rinda, bobokalonimiz shoh va buyuk sarkarda Boburning jasorati yosh avlodning tarbiyasida muhim rol o‘ynashini ko‘rishimiz mumkin.

Ajdodlar ma‘rifat yo‘li haqida o‘ylar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Biz jadidchilik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma‘naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu beba ho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”, degan so‘zları vatanparvar ziyyolilarimizga ehtiromni yanada oshiradi.

Jadid ma‘rifatparvarlarining pedagogik qarashlariasosida . Turkistonda chor hukumi mustamlakachiligi siyosati tufayli ro‘y bergen fojiali voqeа-hodisalarga qarama-qarshi ravishda ma‘rifatparvarlik – jadidchilik harakati dunyoga keldi Ma‘rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma‘naviy-axloqiy g‘oyalari, fikr-mulohazalari o‘sha murakkab tarixiy sharoitlarda shakllandi va rivojlandi.

Ma‘rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma‘naviy holati darajasini yaxshi bilganlar.

Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiy madaniy saviyясини davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma‘rifatga chorlash zarurligini chuqur anglab yetganlar. Xalqni Yevropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da‘vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma‘naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma‘rifatparvarlar birinchilardan bo‘lib tushunib yetganlar. «Asta-sekin ma‘rifatchilikdan jadidchilik o‘sib chiqdi va u ma‘lum darajada siyosiy masalalarni olg‘a sura boshladi. Yangi ta‘limtarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ‘ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi.

Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikr-g‘oyalari oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ‘ib qilindi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o‘z ahvolini yaxshilashga intilishning ko‘rinishlaridan edi». Jadidchilikning asosiy mohiyati millatni qoloqlik, xurofot botqog‘idan chiqarishga qaratilgan.

XX asr o‘zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir qolaversa, Yangi O‘zbekistonda ochilgan “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari, Prezident maktablari, “Ijod maktablari”va “Jaloliddin Manguberdi” maktablari jadid maktablarining uzviy davomidir.

“Temurbeklar maktablari” harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologiyasi va ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo‘llaniladi. Bu tushunchaga insonning g‘oyaviy-siyosiy, ma‘naviy jismoniy va boshqa fazilatlari yig‘indisi kiradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O‘zbekiston Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vatanparvarlik va mustaqil Vatan himoyasi haqida g‘oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Mudofaa vazirligining buyruq va ko‘rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqa qoida hamda me’yoriy hujjatlar o‘rin olgan.

Vatan himoyasi haqidagi asosiy hujjat davlatimizning “Mudofaa to‘g“risida”gi Qonunida aks etgan. Ushbu Qonun mudofani tashkil etishning hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarni boshqarishning huquqiy asoslarini belgilab, mamlakat mudofasini ta‘minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxona, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar ishtirokini aniqlab beradi. Vatan, yerga bo‘lgan muhabbat - xalqimiz qalbiga

singib ketgan, azaliy milliy xususiyatga ega bo'lgan xislatdir. Davlatimizning asosiy vazifalaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodlari va shakllari yordamida inson ongiga har qanday tajovuzkorliklarga qarshilik ko'rsatishda doimiy tayyorlikni shakllantirish, o'z Vatani himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik hissiyoti ruhida tarbiyalashdir.

O'quvchi - yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida pedagogika va psixologiya qoidalaridan keng foydalilanish katta ahamiyat kasb etadi. Buyuk ma'rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniy aytgan: «Fan - bu dunyo boyligi. Bilim -insonning oliy va muqaddas yutug'i. Zero, bilish ko'zgu kabi, bizga dunyoga qarashimizni, intilishlarimizni ko'rsatadi. Qilich kabi aqlimizni, fikrimizni o'tkirlaydi».

Axloqiylik – avvalambor, bu vijdon, vijdoniylik hissi. Bu- ishonch va haqiqatgo'ylikdir. Ajodolarimiz insonni axloqiy baholash mezonlar majmuyini ishlab chiqqan, zamonaviy til bilan aytganda, «Sharqiy axloq kodeksini» yaratgan.Inson qalbida nonni halol topmayotganlar, insofsizlik, vijdonsizlikka nisbatan qarshilik tug'ilishi lozim. Faqat bunday inson o'z so'zida turadi, boshqa kimsa haqiga ko'z alartirmaydi, Vatani va xalqi himoyasi uchun o'z jonini ayamaydi va aksincha, kazzob-mahmadonada bo'lib, vatanparvarlik hissi bo'lmaydi. Har qanday yovo'z ish, xudbinlik, yuzqoralik - Vatanga nisbatan xoinlikdir.

Axloq- ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan xatti-harakat qoidalari yig'indisidir.Axloq odamlarni bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, Vatanga, ona-yurtga bo'lgan munosabatlarni muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Ayni zamonda mehnat va ijod maydonining eng og'ir sohalarida jonbozlik, vatanparvarlik, odamiylik fazilatini ko'rsatib jamiyat hurmati va muhabbatining qaynoq ilhom manbai bo'lib qolmoqdalar. Chunki, bizning oldimizda o'tmishning asoratlaridan ozod bo'lgan, o'zining mustaqil fikriga ega, o'z millati va Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan barkamol vorislarni tarbiyalab etkazish vazifasi turibdi.

Harbiy vatanparvalik tarbiyasini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning harbiy tarbiya faoliyatini o'rganuvchi harbiy tarbiya ham muhim ahamiyatga ega. Tarbiya fan inson shaxsiyoti, ichki ma'naviy dunyosi, o'zini tutish omillari, bir-biridan xususiyati, qiziqishlari bilan farqlanadigan kishilar bilan harbiy vatanparvalik tarbiyasini to'g'ri tashkil qilishni yaxshi tushunishga yordam beradi. Tarbiyachilarning harbiy tarbiya fanini yaxshi bilishi, ularga kasbiy tanlov va yuqori sinf o'quvchilarini harbiy o'quv yurtlariga kirish va O'zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Янги Ўзбекистон кучли иқтисодиёт ва кучли маънавият . / “Янги Ўзбекистон” газетаси. № 24 (280), 2021 йил 3 февраль.

Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. –Т.:Faafur Fулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2010. Б.333.

<https://abiturtest.uz/mavzular/abdulla-avloniying-marifatparvarlik-faoliyati/?ysclid=lu99fmc6i7239984093>

<https://ares.uz/storage/app/uploads/public/620/fea/966/620fea966b371078180020.pdf>

<https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-avloniy-asarlari-talabalarda-yuksakaxloqiy-fazilatlarni-shakllantirishda-muhim-manba-sifatida?ysclid=lu9az7u12e459913097>

Мусурмонова О. Ўқувчилик маънавий маданиятини шакллантириш. - Т.: Фан, 1993. -113 б.

<https://cyberleninka.ru/article/n/harbiy-vatanparvarlik-tarbiyasining-metodologik-nazariy-asoslar?ysclid=lu9dkqnsk7898835161>